QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 7-son)
FILOLOGIYA
PHILOLOGY
https://doi.org/10.70728/b.series.fil.v08.i07.050

UO'K 811.512.133'367:811.111'367

BADIIY TASVIR VOSITALARINING SINTAKTIK KONSTRUKSIYALARDA IFODALANISHI: QIYOSIY-TIPOLOGIK YONDASHUV

Radjapova Intizor Egamberganovna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Urganch
Email: radjapovaintizor70389@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0008-0579-4088

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy tasvir vositalarining (metafora, epitet, o‘xshatish, gradatsiya va boshqalar) sintaktik konstruksiyalar orqali ifodalanishi o‘zbek va ingliz tillari misolida qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda inversiya, sintaktik parallelizm, takror va ritorik so‘roq kabi uslubiy-sintaktik vositalarning ikki tildagi struktur-tipologik farqlari, ularning obrazlilik yaratishdagi funksional o‘xshash va o‘ziga xos jihatlari yoritiladi. Olingan natijalar tarjima jarayonida sintaktik obrazlilikning saqlanishi muammosini yangi qirradan yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: badiiy tasvir vositalari, sintaktik konstruksiya, qiyosiy-tipologik tahlil, inversiya, sintaktik parallelizm, takror, gradatsiya, ritorik so‘roq, chog‘ishtirma tilshunoslik, obrazlilik.

Аннотация. В данной статье на материале узбекского и английского языков в сравнительно-типологическом аспекте анализируется выражение художественных изобразительных средств (метафора, эпитет, сравнение, градация и др.) посредством синтаксических конструкций. Рассматриваются структурно-типологические различия таких стилистико-синтаксических приёмов, как инверсия, синтаксический параллелизм, повтор и риторический вопрос, а также их функциональное сходство и своеобразие в создании образности. Полученные результаты позволяют по-новому взглянуть на проблему сохранения синтаксической образности при переводе.

Ключевые слова: художественные изобразительные средства, синтаксическая конструкция, сравнительно-типологический анализ, инверсия, синтаксический параллелизм, повтор, градация, риторический вопрос, сопоставительное языкознание, образность.

Annotation. This article provides a comparative-typological analysis of how artistic imagery devices (metaphor, epithet, simile, gradation, etc.) are expressed through syntactic constructions in the Uzbek and English languages. It examines the structural-typological differences between stylistic-syntactic devices such as inversion, syntactic parallelism, repetition, and rhetorical questions, along with their functional similarities and distinctive features in creating imagery. The findings contribute a new perspective to the problem of preserving syntactic imagery in translation.

Key words: artistic imagery devices, syntactic construction, comparative-typological analysis, inversion, syntactic parallelism, repetition, gradation, rhetorical question, contrastive linguistics, imagery.

Badiiy nutqning ta’sirchanligi ko‘p jihatdan unda qo‘llanilgan tasvir vositalarining qanday til birliklari orqali voqelanishiga bog‘liq. Tilshunoslikda badiiy tasvir vositalari ko‘pincha leksik-semantik hodisa sifatida - metafora, metonimiya, epitet, o‘xshatish kabi troplar doirasida o‘rganib kelingan. Biroq bu vositalarning katta qismi faqat leksik darajada emas, balki sintaktik qurilma darajasida ham shakllanadi: so‘z tartibining o‘zgarishi (inversiya), gap qismlarining bir xil qurilishda takrorlanishi (sintaktik parallelizm), muayyan til birligining ketma-ket qaytarilishi (takror, anafora, epifora), fikrning kuchayib boruvchi tartibda joylashishi (gradatsiya) - bularning barchasi sintaktik-stilistik vosita sifatida badiiy obrazlilikni yaratishda faol ishtirok etadi.

Sintaktik tasvir vositalarining tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etilishi, xususan, ularning tipologik jihatdan farqlanuvchi ikki tilda - agglyutinativ o‘zbek tili va analitik ingliz tilida - qanday namoyon bo‘lishini qiyosiy o‘rganish, chog‘ishtirma tilshunoslik uchun dolzarb ilmiy-nazariy ahamiyatga ega. Zero, sintaktik tuzilishdagi tipologik farqlar tarjima jarayonida badiiy obrazlilikning saqlanish yoki yo‘qotilish darajasiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi.

Ushbu maqolaning maqsadi - badiiy tasvir vositalarining sintaktik konstruksiyalar orqali ifodalanish xususiyatlarini o‘zbek va ingliz tillari materiali asosida qiyosiy-tipologik metod yordamida tahlil qilish, ikki tildagi struktur o‘xshashlik va farqlarni aniqlash hamda bu farqlarning lingvistik tabiatini ochib berishdan iborat.

Mavzuning dolzarbligi va nazariy asosi

Sintaktik stilistika masalalari jahon tilshunosligida I.R.Galperin, V.V.Vinogradov, Yu.M.Skrebnev kabi olimlarning ishlarida keng yoritilgan bo‘lib, ularda inversiya, parallelizm, takror kabi hodisalar “hissiy sintaksis” tushunchasi doirasida tahlil qilingan [1; 2; 3]. O‘zbek tilshunosligida esa N.Mahmudov, A.Nurmonov, Sh.Rahmatullayev kabi tadqiqotchilar o‘zbek tilining sintaktik-stilistik imkoniyatlarini, jumladan so‘z tartibi va uning uslubiy vazifalarini chuqur tadqiq qilganlar [4; 5].

Shu bilan birga, o‘zbek va ingliz tillarining sintaktik tasvir vositalari qiyosiy-tipologik aspektda, ayniqsa ularning struktur farqlari tarjima nuqtai nazaridan qanday oqibatlarga olib kelishi masalasi hozirgacha yetarlicha o‘rganilmagan. Bu bo‘shliq mazkur tadqiqotning

ilmiy dolzarbligini belgilaydi. Xususan, o‘zbek tili: so‘z tartibi nisbatan erkin, ammo grammatik jihatdan qat’iy tartiblangan (ega, to‘ldiruvchi, kesim) agglyutinativ til bo‘lsa, ingliz tili qat'iy ega, kesim, to‘ldiruvchi tartibiga ega analitik tildir. Aynan shu tipologik farq sintaktik-stilistik vositalarning ikki tilda turlicha shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Maqolaning nazariy asosini chog‘ishtirma-tipologik tilshunoslik, kognitiv stilistika hamda tarjimashunoslikning lingvistik yo‘nalishlariga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Metodologik jihatdan tavsiflash, qiyosiy-tipologik tahlil, struktur-semantik tahlil va kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

Maqola yozish jarayonida o‘zbek va ingliz tilidagi badiiy nasriy va nazmiy matnlardan yig‘ilgan namunaviy tuzulmalar tahlil qilindi. Tanlangan matn parchalari sintaktik-stilistik vositaning turiga ko‘ra guruhlarga ajratildi: 1) inversiyaga asoslangan tuzulmalar; 2) sintaktik parallelizm namunalari; 3) takror (anafora, epifora, polisindeton) hodisalari; 4) gradatsion qurilmalar; 5) ritorik so‘roq va undov gaplar. Har bir guruh bo‘yicha o‘zbek tilidagi tuzulmani ingliz tilidagi ekvivalenti bilan qiyoslandi, ularning sintaktik qurilishi, komponentlar tartibi va uslubiy yuki (stilistik vazni) alohida-alohida belgilandi.

Tahlil ikki bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda har bir sintaktik-stilistik vosita alohida tilning ichki tizimi doirasida: ya’ni o‘zbek tili o‘z grammatik normalari asosida, ingliz tili o‘zining normalari asosida tavsiflandi. Ikkinchi bosqichda esa ikki til bir-biriga qiyoslanib, struktur-tipologik o‘xshashlik va farqlar aniqlandi, bu farqlarning til tizimidagi qaysi sathga (morfologik, sintaktik) bog‘liqligi izohlandi.

Tahlil va natijalar

1. Inversiya. O‘zbek tilida kesimning gap oxirida kelishi grammatik norma hisoblanadi, shu sababli “inversiya” atamasi bu tilda asosan ikkinchi darajali bo‘laklarning (aniqlovchi, hol) odatdagi o‘rnidan siljishini anglatadi. Masalan: *Bepoyon edi dashtning ufqlari.*

Bu misolda kesim (bepoyon edi) ega (ufqlari)dan oldin kelib, ta’kidlash vazifasini bajarmoqda. Ingliz tilida esa, til qat’iy tartibiga ega bo‘lgani uchun, inversiya kesimning yoki to‘ldiruvchining gap boshiga ko‘chishi orqali yuzaga keladi: *Never had the steppe seemed so boundless.*

Ko‘rinib turibdiki, ikki tilda ham inversiya emotsional-ekspressiv ta’kidni kuchaytirish vazifasini bajaradi, biroq uning tuzulishi tubdan farqlanadi: o‘zbek tilida bu - erkin so‘z tartibi doirasidagi siljish, ingliz tilida esa – qat’iy tartibning me’yordan chekinishi, ya’ni kuchliroq uslubiy “buzilish” hisoblanadi. Bu farq tarjimon uchun muhim ahamiyatga ega: o‘zbekchadan ingliz tiliga tarjima qilinganda asliyatdagi tabiiy inversiya ko‘pincha ingliz tilida sun’iy va og‘ir tuyuladigan tuzulmaga aylanib qolishi mumkin.

2. Sintaktik parallelizm. Ikki yoki undan ortiq gap yoxud gap bo‘laklarining bir xil grammatik qurilishda ketma-ket kelishi har ikki tilda ham keng tarqalgan vosita. O‘zbek tilida: *Ko‘zlarida yosh bor edi, dilida armon bor edi.* Ingliz tilidagi funksional ekvivalenti: *There was sorrow in her eyes, there was longing in her heart.* Bu o‘rinda struktur o‘xshashlik yuqori darajada saqlanadi, chunki parallelizm sintaktik bo‘laklarning

takrorlanishiga asoslanadi va bu hodisa til tipologiyasidan nisbatan mustaqil. Ammo o‘zbek tilining agglyutinativ tabiati, qo‘shimchalar orqali ma’no ifodalanishi - parallel qurilmalarga qo‘shimcha ritmik-ohangdorlik baxsh etadi, bu esa ingliz tilidagi analitik tuzulmalarda so‘z tartibi va yordamchi so‘zlar hisobiga qisman kompensatsiya qilinadi.

3. Takror (anafora, epifora, polisindeton). Anaforik takror -gap yoki qatorlar boshida bir xil elementning qaytarilishi - ikki tilda ham obrazlilikni kuchaytirish vazifasini bajaradi:

Bahor keldi -quvonch keldi, bahor keldi - umid keldi.

Spring came - joy came, spring came - hope came.

Polisindeton (bog‘lovchilarning ortiqcha takrorlanishi) borasida esa farq yaqqol ko‘zga tashlanadi: o‘zbek tilida bog‘lovchisiz (asindetik) qurilmalar tabiiyroq hisoblansa, ingliz tili uslubiy maqsadda “and”ning ketma-ket takrorlanishiga (masalan, and…and…and) tez-tez murojaat qiladi. Bu tipologik farq tarjimada polisindetonni asindeton bilan yoki aksincha almashtirish zaruratini keltirib chiqaradi, natijada matnning ritmik-intonatsion tuzilishi o‘zgarishi mumkin.

4. Gradatsiya. Fikrning kuchayib boruvchi tartibda berilishi ikki tilda ham uchraydi, biroq komponentlar orasidagi bog‘lanish vositalari farqlanadi. O‘zbek tilida gradatsion qator ko‘pincha teng bog‘lovchisiz, intonatsiya hisobiga tuziladi: *Kuldi, quvondi, sevindi, yasharib ketdi.* Ingliz tilida bunday qator odatda “and” bog‘lovchisi bilan yopiladi: She smiled, she rejoiced, she was overjoyed, and she seemed to grow young again - bu farq ikki tilning sintaktik bo‘g‘in birlashtirish (koordinatsiya) qoidalaridagi tipologik tafovutdan kelib chiqadi.

5. Ritorik so‘roq va undov gaplar. Bu vositalar funksional jihatdan ikki tilda deyarli bir xil ishlaydi, ammo grammatik shakllanishida farq bor: o‘zbek tilida so‘roq -mi yuklamasi orqali, ingliz tilida esa yordamchi fe'lning ega bilan joy almashishi orqali hosil bo‘ladi. Bu - morfologik va sintaktik vositalarning taqsimlanishidagi tipologik farqning yana bir ko‘rinishidir.

Umumlashtirib aytganda, o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, sintaktik-stilistik vositalarning funksional vazifasi (obrazlilik, ta’kid, ritm yaratish) ikki tilda katta darajada mos keladi, biroq ularning struktur-grammatik mexanizmi tilning tipologik xususiyatlari - so‘z tartibining erkin yoki qat’iyligi, agglyutinativ yoki analitik qurilishi - bilan bevosita bog‘liq holda farqlanadi. Aynan shu farq tarjima jarayonida badiiy tasvir vositalarining to‘liq ekvivalent shaklda saqlanishini qiyinlashtiradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Xulosa

O‘tkazilgan qiyosiy-tipologik tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: birinchidan, badiiy tasvir vositalari nafaqat leksik-semantik, balki sintaktik darajada ham faol shakllanadi va bu jihat qiyosiy tilshunoslik uchun mustaqil tadqiqot obyekti bo‘la oladi; ikkinchidan, o‘zbek va ingliz tillaridagi sintaktik-stilistik vositalar (inversiya, parallelizm, takror, gradatsiya, ritorik so‘roq) funksional jihatdan o‘xshash bo‘lsa-da, ularning struktur mexanizmi ikki tilning tipologik tabiati bilan belgilanadi; uchinchidan, aynan shu struktur-

tipologik farqlar tarjima jarayonida sintaktik obrazlilikning saqlanish darajasiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi va bu masala alohida chuqur tadqiqotni talab qiladi.

Tadqiqot natijalari chog‘ishtirma tilshunoslik doirasida sintaktik stilistika masalalarini yanada chuqur o‘rganish, shuningdek amaliy tarjimashunoslikda sintaktik obrazlilikni saqlash strategiyalarini ishlab chiqishda nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlarda mazkur masalani kengroq korpus materiali asosida, statistik metodlarni ham jalb etgan holda davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Гальперин И.Р. Стилистика английского языка. – М.: Высшая школа, 1977. – 332 с.

2. Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М.: Изд-во АН СССР, 1963. – 255 с.

3. Скребнев Ю.М. Основы стилистики английского языка. – М.: Астрель, 2003. – 221 с.

4. Маҳмудов Н. Тил ва таффакур кўринишлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – 320 б.

5. Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилд. Синтактик назария масалалари. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 336 б.

6. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili sintaksisi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1998. – 240 b.

7. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990. – 253 с.

8. Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков. – М.: Просвещение, 1989. – 254 с.

9. Абдуазизов А.А. Тилшунослик назариясига кириш. – Тошкент: Шарқ, 2010. – 176 б.

10. Galperin I.R. Stylistics. – Moscow: Higher School Publishing House, 1981. – 336 p.